

IBN SALOHNING "ULUM AL-HADIS" ASARI VA UNGA YOZILGAN SHARHLARNING ILMIY AHAMIYATI

Jalolxonov Muzaffarxon

tadqiqotchi

e-mail: muzaffarxonjalolxonov2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ibn Salohning "Ulum al-Hadis" asari va unga yozilgan sharhlarning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Mazkur asar hadis ilmi asoslarini tartibga solgan eng muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida Husayn Iroqiy, Ibn Jamoa, Rog'ib Tabboh, Ibn Hajar Asqaloni, Imom Navaviy, Zakariyo Ansoriy va Ibn Daqiq al-Iyd tomonidan yaratilgan sharhlar tahlil qilindi. Har bir sharhning uslubiy, ilmiy va metodologik xususiyatlari qiyosiy ravishda o'rganildi. Natijada, "Ulum al-Hadis"ning sharh an'anasi hadis ilmini boyitishda, uni keyingi avlodlarga yetkazishda va ilmiy maktablar shakllanishida muhim o'rin tutgani aniqlanadi. Asarga yozilgan sharhlar hadis ilmining nazariy, amaliy, tarixiy va fiqhiy jihatlarini turlicha talqin qilgan bo'lib, ular hadis ilmini o'rganishda keng imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar: Ibn Saloh, Ulum al-Hadis, sharh an'anasi, hadis ilmi, Iroqiy, Ibn Hajar, Imom Navaviy, Zakariyo Ansoriy, Ibn Daqiq al-Iyd, hadis metodologiyasi.

Ibn Salohning "**Ulum al-hadis**" asari islom ilmiy olamida katta ahamiyatga ega bo'lib, hadis ilmini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Uning ilmiy yondashuvlari va ishlab chiqqan metodologiyasi keyingi asrlar davomida ko'plab muhaddislar va olimlar tomonidan o'rganilgan va sharhlangan. Ibn Salohning asarlariga yozilgan sharhlar hadis ilmiga yangi yondashuvlarni olib kirgan va uning ilmiy merosini yanada boyitgan. Ushbu asarning katta e'tibor qozongani unga sharhlar yozilishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari "**Ulum al-hadis**" ni asos qilib





olingan muxtasarlar va nazmga aylantirilgan ishlanmalar ustida ham sharh ishlari bajarilganligi asarning qanday muhim ahaniyatini bildiradi. Iroqiy, Ibn Hajar va Suyutiyning asarlari ustida bajarilgan ishlar bunga misol qilib keltirilishi mumkin. Biz esa asosiy maqsaddan uzoqlashmagan holda, dissertatsiya mavzusi bo'lgan asarning o'ziga yozilgan sharh va ta'liqlar bilan kifoyalanishni maqul deb bildik. "Ulum al-hadis" ustida bajarilgan ishlar quyidagicha tartiblanadi:

1. Husayn Iroqiy: **"At-Taqyid val-izoh li sharh muqaddimati Ibn as-Solah"**¹.

Iroqiyning **"At-Taqyid val-izoh li sharh muqaddimati Ibn as-Solah"** asari hadis ilmi bo'yicha yozilgan muhim sharhlardan biridir. Muallifning to'liq ismi Zaynuddin Abulfazl Abdulrahim ibn Husayn Iroqiy (725–806 hijriy, 1325–1404 milodiy). U hadis ilmida yetuk olimlardan biri bo'lib, o'z davrida "Hofiz" unvoniga sazovor bo'lgan. "At-Taqyid zal-izoh" Ibn Saloh asaridagi 65 bobdan iborat mavzularni batafsil sharhlab, izohlab beradi. Ushbu sharh Ibn as-Solahning matnini o'z o'rnida saqlab qolgan holda, uning murakkab jihatlarini ilmiy asoslangan holda osonlashtiradi.

Asarni o'rganish jarayonida uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

1. Izohlarning chuqurligi. Asardagi 65 bobning har biri izchil va batafsil sharhlangan. Matnning noaniq yoki murakkab joylari oddiy va aniq tilda tushuntirilgan. Hadis ilmidagi texnik terminlarning ta'riflarini, ularning paydo bo'lish sabablari va qo'llanish usullarini batafsil izohlangan. Asarga chuqur izohlar berilib, hadisning isnod va matn tahliliga alohida e'tibor berilgan. Har bir masala fiqhiy, usuliy va tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Hadis ilmiga oid nazariy masalalarni faqatgina bayon qilmay, balki ularning mantiqiy va ilmiy asoslarini ko'rsatilgan.

2. Qo'shimcha manbalarga murojaat. **Muallif o'z fikrlarini bayon qilishdan tashqari boshqa manbalarga murojaat qilib**, ularning Ibn Saloh

¹ Zayniddin Husayn Iroqiy. At-tabsira vat tazkira. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2002. – B. 20.



fikrlariga o'xshash yoki farqli tomomlarini aytib o'tgan. Har bir mavzuni Qur'on, sunnat, sahobalar va tobeinlarning amaliyotlari bilan bog'laydi. O'zidan oldingi va zamondosh olimlarning hadis ilmiga oid turli yondashuvlarini tahlil qilingan.

3. Nazariy limning amaliy ko'rinishi. Asar nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, hadislarni amaliyotda qanday qo'llash mumkinligi haqida maslahatlar beradi. Hadisning isnodi va matnini o'rganishda qaysi usullarni qo'llash kerakligi bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, hadis ilmidagi tarixiy va zamonaviy bahs-munozaralarni keltirilgan.

4. Tanqidiy munosabat. Ba'zi o'rinlarda Ibn Salohning ba'zi qoidalarini va fikrlarini tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Har bir mavzuni yakunida qisqacha xulosa keltirilib, o'quvchiga asosiy fikrlarni yaxlit tarzda yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, Al-Iroqiyning sharhi **ilmiy asoslangan va keng qamrovli** bo'lib, Ibn Saloh matnini chuqur tahlil qiladi. Boshqa sharhlardan farqli o'laroq, bu asar hadis ilmidagi bahs-munozaralar va turli fikrlarni qiyosiy tahlil qilishga alohida e'tibor beradi. Shu sababli, u hadis ilmiga qiziquvchi mutaxassislar uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

2. Ibn Jamoa: "**Sharhu ulum al-hadis li Ibn as-Saloh.**"²

To'liq ismi **Izzuddin Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abdulaziz Kinoniy Hamaviy** (v.h. 733-yil), hadis ilmi bo'yicha mashhur olimlardan biri bo'lib, uning bu asari "Muqaddima" ga yozilgan muhim sharhlardan biridir. Ibn Jamoa ushbu sharhda Ibn Salohning hadis ilmi haqidagi muhim qoidalarini izohlab beradi. U ilmiy tahlillar bilan birga amaliy masalalarga ham e'tibor qaratadi. **Muallif o'z asarida** hadis ilmini chuqurroq o'rganishni istagan talabalar uchun tushunarli va mukammal izoh berish, ayni vaqtda Ibn Salohning qoidalarini amaliy jihatdan ko'rsatishni maqsad qilgan.

Bu asarning ham "Muqaddima" ga yozilgan boshqa sharhlardan farqli va o'ziga xos jihatlari bo'lib, quyida ularni batafsil bayon qilinadi:

² Jaloliddin Suyutiy. Byug'yatul vuat fiy tabaqotil lug'aviyyin van tuhat. – Qohira: dorul fikr, 1979. – B. 65.



1. **Oddiy va amaliy uslub.** Ibn Jamoa o'z sharhlarini oddiyroq tilda yozgan, bu esa hadis ilmiga yangi kirib kelgan talabalar uchun qulaydir. Asar amaliy misollar va hayotiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratadi.

2. **Fiqhiy jihatga urg'u.** Ibn Jamoaning fiqh sohasidagi chuqur bilimlari uning asarida hadis ilmi va fiqh o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshi ko'rsatib beradi. Asarda hadis ilmidagi nazariy tahlillar bilan cheklanmasdan, ularning fiqhiy amaliyotdagi o'rnini ham ko'rsatib beradi. Har bir bobni o'zining fiqhiy asoslari bilan bog'laydi.³

3. **Ibn Salohning matniga hurmat.** Ibn Jamoa asarda Ibn Salohning fikrlarini qattiq tanqid qilmasdan, asosan, tushunish oson bo'lmagan jihatlarni izohlashga e'tibor qaratadi.

4. **Qisqartma va xulosalar.** Boblarni qisqa, lekin mazmunli tarzda sharhlaydi. Ba'zi murakkab masalalarni ixcham va lo'nda tushuntirish bilan ajralib turadi.

5. **Tafsilotga e'tibor.** Ibn Jamoa boshqa mualliflarga qaraganda mavzularni ko'proq tafsilot bilan yoritadi. Ayniqsa, isnod tahlilida uning yondashuvi boshqa asarlardan ancha chuqurdir.

6. **Didaktik yondashuv.** Kitob o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv qo'llanma sifatida yozilgan. Ibn Salohning asaridan farqli ravishda, Ibn Jamoa ko'p masalalarni tushuntirishda o'quvchini hisobga oladi.

7. **Ibn Saloh asariga to'liq bog'liq emasligi.** Garchi u Ibn Salohning "Muqaddima" siga asoslangan bo'lsa-da, ba'zi o'rinlarda o'zining mustaqil fikrlarni ham kiritadi va ayrim masalalarni yangicha yondashuv bilan yoritadi.

Ushbu kitob hadis ilmini o'rganishda asosiy manba bo'lib, Ibn Jamoa o'zining sharhlari bilan bu sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Asar o'quvchilarni hadis ilmining nazariy va amaliy asoslari bilan mukammal tanishtiradi. Bu sharh asosan hadis ilmini endi o'rganayotganlar va amaliy jihatga e'tibor qaratayotganlar uchun foydalidir. Asar muallifining uslubi juda soddalashtirilgan bo'lsa-da, ilmiy murakkablik saqlangan. Ibn Jamoa "Sharhu

³ Jaloliddin Suyutiy. Byug'yatul vuat fiy tabaqotil lug'aviyyin van tuhat. – Qohira: Dorul fikr, 1979. – B. 154.



Ulum al-hadis li Ibnus-Salah" asari o'z davrida va undan keyin ham hadis ilmi bo'yicha talabalarga yengil va tushunarli bo'lgan sharh sifatida xizmat qilgan.

3. Rog'ib Tabboh: "Al-misbah ala muqaddimati Ibnus-Saloh"⁴.

Ushbu asar yuqoridagi ikki asardan farqli raqivishda sharh emas balki, ta'liq(izohli sharh) **bo'lib**, hadis ilmi bo'yicha suriyalik taniqli olimlardan biri - **Rog'ib Tabboh** (vafoti: 1370/1951) qalamiga mansub. Uning **ushbu** asari hadis ilmi asoslari haqida keng sharh va izohlarni o'z ichiga olib, "Muqaddima" ni talqin qilishda o'ziga xos yondashuvni qo'llaydi. Muallif ta'liqning muqaddimasida asarni yozishdan ko'zlangan maqsad - hadis ilmidagi qoidalarini o'z davri ilmi nuqtai nazaridan tahlil qilish va zamonaviy o'quvchilarga tushunarli qilish ekanligini aytib o'tadi. Asarda Ibn Saloh matnidagi hadis ilmining 65 bobiga izoh beriladi⁵. U hadis tushunchalari, isnodlar, matnlar va boshqa muhim masalalarni nazariy hamda amaliy jihatdan yoritadi.

Asar bilan tanishish davomida uning quyidagi o'ziga xos jihatlari o'rganildi:

1. **Zamonaviy yondashuv.** Rog'ib Tabboh o'z asarida Ibn Salohning qoidalarini zamonaviy ilm-fan va tushunchalar bilan uyg'unlashtirgan. Hadis ilmini faqat nazariy yondashuv emas, amaliy jihatdan ham o'rganishga yo'naltiradi. Sharhda hozirgi zamon ilmiy talablari va uslublariga mos keladigan tarzda hadis ilmini o'rganish taklif qilinadi. Bugungi o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

2. **Manbalardan keng foydalanish.** Muallif Ibn Salohning matnidan tashqari hadisshunoslikka oid boshqa muhim manbalarni keltirib, ularni tahlil qiladi. Misol tariqasida *Imom Navaviy, Ibn Hajar, Iroqiy* asarlaridan o'rinli dalillar keltiriladi.⁶ Sharhda manbalarning xilma-xilligiga e'tibor qaratilib, turli talqinlar muhokama qilinadi.

3. **Hadis ilmi va tarixiy nuqtai nazar.** Rog'ib Tabboh hadis ilmiga faqat nazariy yondashmaydi, balki u hadisning tarixiy rivojlanishini ham tahlil qiladi.

⁴ Ibn Hajar Asqaloniyy. Ad-durar al kamina. – Bayrut: Dorul kutubul ilmiyya, 1993. – B. 331.

⁵ O 'sha manba. – B. 355.

⁶ Ibn Hajar Asqaloniyy. Ad-durar al kamina. – Bayrut: Dorul kutubul ilmiyya, 1993. – B. 76.



Ilmiy jihatdan hadislarini toifalashda ularning tarixiy va amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Hadis ilmining tarixiy rivojlanishi va istilohlarning paydo bo'lish jarayoni izohlanganligi juda e'tiborli ahamiyat kasb etadi. Hadislarning toifalanishi va ularga bo'lgan munosabatning turli davrlardagi o'zgarishlari sharhning muhim qismi hisoblanadi.⁷

4. **O'quvchilar uchun qulay uslub.** Asar murakkab ilmiy masalalarni sodda va tushunarli qilib bayon qiladi, bu uni talabalarga moslashtiradi. Yangi boshlovchi talabalar uchun qulay bo'lishi maqsadida ilmiy qoidalar amaliy misollar bilan tushuntirilgan.

5. **Amaliy izohlar va xulosalar.** Tabboh asarining har bir bo'limida qisqa amaliy izoh va xulosalar beradi, bu esa qoidalarni tez anglashni osonlashtiradi. Hadis qoidalarining amaliyotda qo'llanilishi haqida keng izohlar berilgan. Sharh o'quvchini hadis ilmining fiqhiy va tarixiy amaliyotiga yo'naltiradi.

6. **Qisqartirilgan, lekin mazmunli sharh.** Ibn Salohning murakkab qoidalari ixcham tarzda, mazmunni saqlagan holda izohlanadi. Har bir bobning asosiy g'oyasi va ahamiyati lo'nda qilib tushuntiriladi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib aytganda, Rog'ib at-Tabbohning sharhi o'zining **zamonaviylik, soddalik va keng qamrovli izohlar** berishi bilan ajralib turadi. Asar Ibn Saloh matnini o'rganayotganlar uchun zamonaviy talqinni taklif qiladi. Hadis ilmini tushunishni osonlashtiradi, ayniqsa, zamonaviy o'quvchilar uchun foydali bo'lgan amaliy va tarixiy misollar keltiradi. Uning yondashuvi Ibn Saloh matnini nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirish orqali uni chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

4. **Ibn Hajar Asqaloniyl: "An-nukat ala kitab Ibn as-Solah"**⁸

Ibn Hajar Asqaloniylning "An-nukat ala kitab Ibn as-Solah" asari hadis ilmi bo'yicha yozilgan tanqidiy-tahliliy sharhlardan hisoblanadi. Asar muallifi Hofiz Ahmad ibn Ali ibn Muhammad al-Kinaniyl al-Asqaloniyl (Ibn Hajar), hijriyl

⁷ Shamsiddin Zahabiyl. Tazkirot al-huffaz. – Bayrut: Dorul ihya ut-turosir rarbiyl, 1998. – J.2. – B.188.

⁸ Ibn Hajar Asqaloniyl. An-nukat ala kitab Ibn as-Solah. Damashq: Dorul raiyyah, 1988. – B. 43.



9-asrning eng taniqli muhaddislaridan. Ushbu kitobda muallif "Muqaddima" asaridagi masalalarni chuqur tahlil qilish, dalillar bilan mustahkamlash yoki lozim bo'lsa, ularni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish maqsad qilganligini anglash mumkin bo'ladi.

Ushbu asar o'rganilganda uning boshqa sharhlardan farq qiluvchi bir qancha o'ziga xos jihatlari aniqlandi:

1. Tanqidiy va tahliliy yondashuv. Ibn Hajar "An-Nukat"da Ibn Salohning ba'zi qarashlarini tanqid qilib, ularni dalillar bilan qayta ko'rib chiqadi.⁹ Har bir bobdagi masalalarning to'g'riligini baholab, zamondosh va oldingi olimlarning fikrlarini keltiradi. O'zidan avvalgi va zamondosh olimlar, jumladan **Iroqiy, Navaviy, va Zarkashiy** fikrlarini tahlil qilib, dalillar asosida qiyoslaydi.

2. Keng qamrovli manba. Ibn Hajar hadis ilmidagi boshqa muhim manbalar, jumladan, **Sahih al-Buxoriy, Sahih Muslim,** va boshqa mualliflarning asarlaridan keng foydalanadi. O'ziga xos jihati – manbalar xilma-xilligi va tahliliy qiyoslar bilan boyitilgan.

3. Hadis isnodlariga alohida e'tibor. Asarda isnodlarning sahifligi va zaifligiga oid batafsil tahlillar berilgan. Ibn Hajar isnodlarni tekshirishda Ibn Salohning qoidalarini qo'llab-quvvatlaydi yoki, zarur bo'lsa, ularga aniqlik kiritadi.¹⁰

4. Hadis ilmida nazariy va amaliy uyg'unlik. Sharh hadis qoidalari va istilohlarini nazariy jihatdan izohlagan holda, ularning amaliy jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Hadis ilmida talabalarning o'rganishi uchun nazariy qoidalarni sodda va amaliy tavsiyalar bilan boyitadi.

5. Tarixiy va fiqhiy ahamiyat. Ibn Hajar hadislarning tarixiy rivojlanishi va ularning fiqhiy amaliyotdagi o'rniga keng urg'u beradi. Hadislar asosida shar'iy hukmlarni ajratishda batafsil izohlar beradi.

Xulosa o'rnida quyidagilar ta'kidlanadiki, Ibn Hajar Asqaloniyning "**An-nukat ala kitab Ibn as-Salah**" asari o'zining **ilmiy-tanqidiy tahlillari, hadis**

⁹ Ibn Hallikon, *Vafayotul a'yon*. Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 2004. J: 3. – B. 231.

¹⁰ Shamsiddin Zahabiy. Tazkirat al-huffoz. Haydarobod: Majlis doirat al-maorif an-nizomiya, 1915. – B.188.



isnodlariga e'tibori, va keng manba qamrovi bilan ajralib turadi. Hadis ilmi bo'yicha keng va chuqur yondashuvni taklif qiladi. Boshqa sharhlardan ko'ra murakkabroq, ammo ilmiy mukammallik nuqtai nazaridan mukammalroq hisoblanadi. "An-nukat" asari hadis ilmiga qiziquvchi ilmiy talaba va olimlar uchun yuksak manba bo'lib xizmat qiladi.

5. Imom Navaviy: "At-taqrib vat-taysir".

Imom Navaviy (631–676 h.q.) hadis ilmi sohasida buyuk olim bo'lib, uning "**Al-Taqrīb wa al-Taysir**" asari Ibn as-Solahning "**Muqaddima**" kitobiga yozilgan eng ixcham va talabalarga mo'ljallangan sharhlardan biridir.¹¹ Ushbu asar Ibn Salohning asarini sodda va qisqartirilgan shaklda o'quvchilarga tushuntirishga qaratilgan. Kitobning uslubi o'ta ixcham va tushunarli, ilmiy tahlil va bahslardan ko'ra asosiy qoidalarni tushuntirishga qaratilgani uchun o'quvchilar tomonidan juda qiziqish ila qabul qilingan. Asarni o'rganish jarayonida uning boshqa kitoblardan quyidagi farqli va qulay tomonlari aniqlandi:

1. Ixchamlik va soddalik. Ibn Saloh asaridagi murakkab va keng muhokamalarni sodda qilib qisqartirgan. Faqat eng asosiy va muhim qoidalar keltiriladi. O'quvchilar hadis ilmiga kirib kelish uchun tushunarli va qulay asos yaratadi.

2. O'quvchilarga yo'naltirilgan uslub. Imom Navaviy asarni ilmiy darajasi yuqori bo'lmagan talabalar uchun mo'ljallagan. Terminologiya va istilohlarni imkon qadar oddiy va qisqa qilib tushuntiradi.

3. Hadis istilohlariga e'tibor. Kitob hadis ilmidagi asosiy istilohlar va ularning ma'nolarini tushuntirishga qaratilgan. **Sahih, zaif, mutavotir, ohod** kabi tushunchalar sodda va lo'nda bayon qilingan.¹²

4. Fiqhiy va amaliy masalalarga urg'u berilmagan. "Al-Taqrīb vat-taysir" asari faqat hadis ilmiga oid nazariy asoslarni tushuntirish bilan chegaralangan. Fiqhiy masalalar yoki amaliy qo'llanmalarga e'tibor bermaydi.

¹¹ Yahyo ibn Sharaf Navaviy. *At-taqrib vat-taysir*. Istanbul: Darul Samman, 2019. – B. 33.

¹² Yahyo ibn Sharaf Navaviy. *At-taqrib vat-taysir*. Istanbul: Darul Samman, 2019. – B. 97.



5. **Ilmiy bahslardan chetlanish.** Ibn Saloh asaridagi ayrim masalalar bo'yicha bahs-munozaralar olib borilmagan. Imom Navaviy bahs va tahlillarni ilmiy darajasi yuqori bo'lgan sharhlarga qoldirgan.¹³

Yuqoridagi fikrlar xulosasi sifatida Imom Navaviyning "**At-taqrib vat-taysir**" asari o'zining **ixcham va sodda uslubi, talabalarga mo'ljallanganligi, hadis ilmiga kirish uchun qulayligi bilan** hadis ilmini o'rganishni istagan yangi boshlovchilar uchun ideal manba hisoblanadi. Tajribali olimlar esa chuqurroq tahlil uchun **Iroqiy, Ibn Hajar** yoki **Zarkashiy** sharhlariga murojaat qilishlari tavsiya etiladi.

6. **Zakariyo Ansoriy: "Sharh Muqaddimati Ibn as-Solah".¹⁴**

Ushbu sharh muallifi Zakariyo Ansoriy (1420–1520) Misrning mashhur olimi bo'lib, shofeiy mazhabining yirik faqihlaridan biri va hadis ilmlarining bilimdoni hisoblanadi. Uning sharhlari ilmiy va uslubiy ravonlik bilan ajralib turadi.

Zakariyya Ansoriy asarida Ibn Salohning hadis ilmlariga oid masalalarni tasnif qilishdagi uslubini izohlaydi va tushunarsiz yoki murakkab qismalarga kengroq sharh beradi. Quyida asarning boshqa sharhlardan farqlari keltiriladi:

1. **Usuliy yondashuv.** Zakariyya Ansoriy sharhida boshqa olimlar, masalan, an-Navaviy yoki Ibn Hajar al-Asqaloniyy yozgan sharhlardan farqli ravishda, **fiqhiy muammolar va hadis ilmlarining nazariy jihatlarini chuqurroq muhokama qiladi.**

2. **Ijodiy erkinlik.** Navaviy yoki Ibn Hajar kabi olimlar asosan mavjud ma'lumotlarni izohlash bilan cheklangan bo'lsa, Zakariyo Ansoriy hadislar zanjiri va matnini baholashda **qo'shimcha izoh va muqobil fikrlarni kiritadi.** Bu yondashuv talabalarga kengroq tushunchalar beradi.

3. **Til va uslub.** Ansoriyning asari **ravon arab tilida va mantiqiy izchillikda yozilgan** bo'lib, o'quvchilarning qiyinchiliksiz o'qishiga moslashtirilgan.

¹³ O 'sha manba. – B. 113.

¹⁴ Zakariyo Ansoriy. Sharh Muqaddimati Ibn as-Solah. Sayda: Al-Maktaba al-Asriyya, nashr yili ma'lum emas. – B. 35.



4. **Shofei mazhabiga alohida e'tibor.** Ansoriy shofei mazhabi ulamolarining fikrlarini kengroq muhokama qiladi va sharhida bu mazhabga oid maxsus masalalarni ham ta'kidlaydi.¹⁵

Umumiy xulosa shuki, Zakariyo Ansoriyning "Sharhu muqaddimati Ibn as-Solah" asari hadis ilmlari haqida chuqur va izchil tahlilni o'z ichiga oladi. Uning o'ziga xosligi - hadis ilmlarini shofe'iy fiqhi doirasida sharhlashida va mavzuga innovatsion yondashuvda namoyon bo'ladi. Ushbu asar nafaqat hadis ilmiy manbai, balki musulmon olimlari o'rtasida keng muhokama va ilmiy mulohazalar uchun asos bo'lganligi e'tiborga molik.

7. **Ibn Daqiq Iyd: "Al-Iqtirah fi Sharh Muqaddimati Ibn as-Solah".**¹⁶

Ibn Daqiq Iyd nomi bilan mashhur bo'lgan olimning to'liq ismi Abu al-Fath Taqiyuddin Muhammad ibn Ali ibn Vahb (vafoti: 702 hijriy/1302 milodiy) bo'lib, bu sharh o'ziga xos ilmiy yondashuvlari va chuqur tahlillari bilan ajralib turadigan sharhlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida asar Ibn Salohning hadis ilmidagi nazariyalarini tushuntirish, kengaytirish va ba'zi masalalarga o'z ilmiy qarashlarini qo'shish maqsadida yozilganligi aniqlandi. Asarning o'ziga xos va boshqa asarlardan farqli jihatlari quyida keltiriladi:

1. **Ilmiy va tanqidiy yondashuv.** Ibn Daqiq Iyd, Ibn Salohning ba'zi fikrlarini tanqid qilgan va ularga ilmiy asosda muqobil qarashlarni taklif etgan. Sharhda faqat matnni izohlash bilan cheklanmay, hadis ilmlarining nazariy va amaliy masalalari keng muhokama qilinadi¹⁷.

2. **Manbalarga murojaat qilish.** Muallif hadis ilmlari bo'yicha asosiy manbalarni keltirib, ularni batafsil tahlil qiladi. O'sha davrdagi boshqa olimlarning fikrlarini ham keltirib, ularga o'z mulohazalari bilan javob beradi.¹⁸

¹⁵ Tojiddin Subkiy. Tobaqotu ash-shofeiyya al-kubro. J: 8. - Bayrut: Darul kutubul ilmiyya 1987. - B. 245.

¹⁶ Ibn Daqiq Iyd. Al-Iqtirah fi Sharh Muqaddimati Ibn as-Solah. Ar-Riyod: Maktabat al-Ma'arif, 2003. - B. 42.

¹⁷ O'sha manba. - B. 154.

¹⁸



3. **Falsafiy va nazariy yondashuv.** Asarda hadis ilmlarining asosiy tushunchalari (masalan, sahih, zaif, isnod) haqida chuqur falsafiy yondashuv va nazariy tahlil mavjud. Amaliy qo'llanilishi uchun ham maslahatlar berilgan.

4. **Soddalik va mukammallik.** Matn ilmiy jihatdan chuqur bo'lishiga qaramay, o'quvchi uchun tushunarli tilda yozilgan, bu esa boshqa murakkab sharhlardan farq qiladi.

"**Al-iqtirah fi sharh muqaddimati Ibn as-Solah**" asari hadis ilmining nazariy va amaliy masalalarini chuqurroq tushunish uchun muhim manba hisoblanishi, Ibn Daqiq al-Id ushbu sharhida hadis ilmining tamoyillarini ilmiy asosda chuqur tahlil qilganligi va o'zining ilmiy fikrlarini ham bayon etganligi, asar hadisshunoslik sohasida chuqur bilim olishni istagan har bir talabaga va olimga muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qilishi uning ilmiy qadrini yanada oshirishi xulosa qilindi.

Yuqorida keltirilgan sharh, izoh va xulosalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, "Ulum al-hadis" asari hadis ilmining tamal toshi bo'lgan asar bo'lib, unga yozilgan sharhlar ilmiy va amaliy jihatdan hadis ilmiga bebaho hissa qo'shgan. Ushbu sharhlar asarni yanada boyitib, uni keyingi avlodlar uchun o'rganishga qulaylashtirgan. Har bir sharh hadis ilmining turli jihatlarini yoritgan bo'lib, "Muqaddima" ning ilmiy merosini saqlab qolishda muhim rol o'ynagan.

Ibn Saloh o'z asarlari orqali fiqh va hadis ilmlarining o'zaro bog'liqligini ochib bergan. Fiqhdagi har bir hukmning asl negizi albatta biror hadisga tayanishini asoslab bergan. Ibn Salohning yozgan asarlari slom ilmlarini, ayniqsa hadis ilmini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi"Ulum al-hadis" va boshqa asarlari orqali u hadis ilmining nazariy asoslarini shakllantirdi va Islom olamining ilmiy boyligiga ulkan hissa qo'shdi. Uning ilmiy yondashuvlari keyingi asrlar olimlari uchun yo'nalish ko'rsatdi va hadis ilmining muhim sohasi sifatida mustahkamlanishiga xizmat qildi. . Uning asarlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi.

Ibn Salohning hadis ilmi usuli bo'yicha asari, ta'siri hozirgi kungacha davom etgan klassik bir asar sifatida Islom ilmlari tarixida katta ahamiyatga ega. U o'zidan



oldin yozilgan hadis usuli asarlarida tarqoq holda bo'lgan ma'lumotlarni yig'ib, ularni yangi tartibga solgan holda ushbu sohada eng qimmatli asarga aylantirgan. Dars davomida yozib olinadigan asar sifatida, ayniqsa tartibi tufayli tanqid qilingan bo'lsa-da, undan keyin yozilgan deyarli barcha hadis usuli asarlariga manba bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Saloh, Abu Amr. *Ulm al-Hadis*. Tahrir va Sharh: Muhammad Fuwad Abdul-Baqi, Maktabat al-Kahira, 1976.
2. Hajar al-Asqalani, Ibn. *Nuzhat al-Nazar fi Tahlil al-Ashar al-Mizan*. Dar al-Ma'arif, 1988.
3. Iroqiy, Husayn. *Sharh al-Muqaddima al-Ibn Saloh*. Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1993.
4. Ibn Jamoa, Shams al-Din. *Al-Muwahhidat fi Tashih al-Hadis*. Dar al-Nadwa al-Ilmiyya, 2001.
5. Ansoriy, Zakariyo. *Al-Tahqiq fi al-Hadis*. Al-Maktabah al-Islamiya, 1995.
6. Navaviy, Imom. *Al-Taqrif wa al-Tahdhib fi Ilm al-Hadis*. Dar al-Hijrah, 1989.
7. Rog'ib al-Tabboh, Muhammad. *Al-Tafsir al-Hadis wa Asraruhu*. Dar al-Maktabah al-Azhariyya, 2000.
8. Al-Nawawi, Yahya ibn Sharaf. *Al-Majmu' al-Sharh al-Muhadhdhab*. Dar al-Ihya' al-Turath al-'Arabi, 1998.
9. Al-Dhahabi, Shams al-Din. *Al-Mizan al-Kubra fi al-Hadis*. Dar al-Mutafaqqah, 1991.
10. *Al-Qamus al-Muhit fi al-Lughah wa al-'Arabiyyah*. Dar al-Ilm al-Malay, 2005.